



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QO'MITASI

2025-yil "3" iyun

BUYRUQ № 59

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 24 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-75-son qaroriga muvofiq, Milliy statistika qo'mitasi tizimiga kiruvchi tashkilotlarda "Biznes uchun statistika" konsalting xizmatini joriy etish maqsadida, **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

"Biznes uchun statistika" konsalting xizmatining konsepsiyasi 1-ilovaga muvofiq;

"Biznes uchun statistika" konsalting xizmatini ko'rsatish tartibi (keyingi o'rinlarda – Tartib) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Milliy statistika qo'mitasi markaziy apparati bo'linmalari, hududiy statistika boshqarmalari hamda Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti rahbarlari, yuridik va jismoniy shaxslarga konsalting xizmatlarini ko'rsatish ishlarini amalga oshirishni Tartibga muvofiq tizimli tashkil etsinlar.

Konsalting xizmatlarini ko'rsatish ishlarini o'z vaqtida va sifatli tashkil etilishi uchun ushbu xizmatlarni ko'rsatayotgan Milliy statistika qo'mitasi markaziy apparati bo'linmalari hamda Milliy statistika qo'mitasi tizimiga kiruvchi tashkilotlar rahbarlari shaxsan mas'ul etib belgilansin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari boshliqlari:

konsalting xizmatlari ko'rsatish bo'yicha belgilangan rejani o'z vaqtida va sifatli bajarish choralarini ko'rsinlar;

konsalting xizmatlarini ko'rsatishda davlat organlari va tashkilotlari bilan tuziladigan shartnomaning eng kam miqdori bir BHM, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuziladigan shartnomalar qiymatlari Tartibning 2-ilovasiga muvofiq belgilanishini ta'minlansinlar;

konsalting xizmatlarini (statistika ma'lumotlarini broshyura va fleshkada taqdim etish, telefon orqali tushuntirish berish, videokonferensaloqa orqali seminarlar o'tkazish hamda statistika organlari xodimlari tomonidan joylarda seminarlar o'tkazish) barcha tuman va shaharlarda tashkil etsinlar;

konsalting xizmatlaridan tushgan mablag'larni Tartibda (18-band) belgilangan asosda xodimlarga o'z muddatida va teng taqsimlashni ta'minlasinlar.

4. Konsalting xizmatlarini takomillashtirish hamda "Biznes uchun statistika" konsalting xizmati ko'rsatishni elektron shaklga o'tkazish maqsadida:

a) Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi **(D. Zakirov)** bir oy muddatda “Biznes uchun statistika” konsalting xizmati axborot portalini yaratish uchun texnik topshiriqni ishlab chiqsin va Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va statistik registrnlarni yuritish boshqarmasiga taqdim etsin;

b) **2025 yil yakuniga qadar:**

Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va statistik registrnlarni yuritish boshqarmasi **(Sh. Odilov)** konsalting xizmatlarini yuritish bo’yicha axborot tizimini (keyingi o’rinlarda – axborot tizimi) ishlab chiqilishini hamda ishga tushirilishini ta’minlasin;

Kiberxavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi **(B. Imamov)** konsalting xizmatini ko’rsatishda telefon raqamiga “Yozma eslatma” va “Telefon qo’ng’iroq eslatma” ovozli xabarni axborot tizimi orqali yetkazishni joriy etish choralarini ko’rsin.

5. Statistika ma’lumotlarini muvofiqlashtirish va tarqatish boshqarmasi **(A. Sultanov):**

bir oy muddatda Tartibda belgilangan tarif rejalarga ko’ra, taqdim etiladigan statistik ma’lumotlar ro’yxatini shakllantirsin;

ro’yxatga asosan ma’lumotlarni yangilab borish choralarini ishlab chiqsin va statistik ma’lumotlarni konsalting xizmatlarini yuritish bo’yicha axborot tizimiga joylashtirib borsin.

6. **2026 yil 1 yanvardan** Konsalting xizmatlari ko’rsatishdan tushgan pul mablag’lari Tartibning 3-ilovasida keltirilgan qoidalarga asosan taqsimlash amaliyoti joriy etilsin.

7. Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi **(D. Zakirov)** yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnoma asosida konsalting xizmatlarini ko’rsatish ishlari yuzasidan doimiy monitoring va nazorat olib borishni ta’minlasin.

8. Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi **(J. Shirinov):**

konsalting xizmatlari ko’rsatish uchun zarur broshyura va fleshkalarni belgilangan tartibda sotib olish choralarini ko’rsin;

tizim tashkilotlarida konsalting xizmatlari ko’rsatishdan tushgan tushumlarni Tartib talablari asosida to’g’ri yo’naltirilishi yuzasidan doimiy nazorat o’rnatsin.

9. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish direktor o’rinbosari Z. Ziyayev zimmasiga yuklatilsin.

Rais



B. Hamrayev